



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 22-avgust, № 171 (9066)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



SUD TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ODIL SUDLOVGA ERISHISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BELGILAB BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sud tizimini takomillashtirish va odil sudlov masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda bu soha izchil isloh qilinib, sudlar jazolovchi o'ngandan inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga aylantirildi.

Jumladan, ma'muriy sudlar tashkil etildi. Maishiy zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan samarali choralar ko'rildi. Oilaviy masalalarga ixtisoslashgan sudyalor korpusi yaratildi. Investitsiyaviy nizolar bo'yicha alohida sudlov tarkibi tashkil etildi.

Bu islohotlarni fuqarolar o'z hayotida sezmoqda, xorijiy ekspertlar muhim qadam sifatida e'tirof etmoqda.

Shu bilan birga, sudlovning ochiqligi va xalqchilligini ta'minlash, raqamlashtirish orqali odamlarga qulaylik yaratish, yuqori malakali kadrlar

tayyorlash bo'yicha ko'p masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Taqdimotda bu boradagi rejalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Odil sudlov sohasini raqamlashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida “Raqamli sud” konsepsiyasi ishlab chiqildi va uni izchil amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Bu korupsiyaning oldini olish, fuqarolar va tadbirkorlarga o'voragarchiliksiz odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahillarga ko'ra, fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ko'riladigan da'volarning katta qismi nizosiz ishlarga to'g'ri kelmoqda. Shu bois bunday masalalarni ma'muriy organlar

vakolatiga o'tkazish taklif etilmoqda. Bunday tizim fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari muammolarining qisqa muddatda hal etilishini ta'minlaydi.

Yana bir qulaylik — ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini ekstritorial tarzda ko'rish tartibini joriy etish. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida buning imkoni bor.

Adolat va ishonchni ta'minlashda sudyalik lavozimining barqarorligi muhim. Shu maqsadda sudyalikka tayinlash muddatlarini qayta ko'rib chiqish ko'zda tutilmoqda.

Barcha yo'nalishdagi sudlar bo'yicha mintaqaviy taftish sudlarini tashkil etish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlardagi taftish instansiyalarini

tugatish taklifi bildirildi. Bunda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda faqatgina apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi bo'lishi, taftish instansiyasi esa 5 ta mintaqaviy sudga tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim masala — sud tizimi uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish. Shu maqsadda Sudyalor oliy maktabini isloh etib, uning negizida Odil sudlov akademiyasini tashkil etish konsepsiyasi taqdimot qilindi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan takliflarni ma'qullab, tegishli farmonlarni imzoladi. Rejalashtirilgan vazifalar ijrosini tizimli va sifatli ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'ZA.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN TURKMANISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 22-avgust kuni “Ozarbayjon — Turkmaniston — O'zbekiston” formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

“Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tadigan tadbir kun tartibiga muvofiq ko'p tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va gumanitar sohalarida rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Qator qo'shma hujjatlar imzolaniishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari sammit doirasida ikki tomonlama muzokaralar ham o'tkazadi.

O'ZBEKISTON — TURKMANISTON — OZARBAYJON SAMMITI — BIRGALIKDAGI YANGI IMKONIYATLAR SARI NAVBATDAGI QADAM

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning Turkmaniston bilan ham, Ozarbayjon bilan ham ikki va ko'p tomonlama munosabatlari yuksak darajaga ko'tarilgan. Bugun jahonda kechayotgan global o'zgarishlar esa uch davlat o'rtasidagi aloqalarni barcha jabhada yangi bosqichga olib chiqishni taqozo qilmoqda. Xususan, transport-kommunikatsiya, energetika, dengizga chiqish va boshqa yo'nalishlarda o'zaro sheriklikni jadallashtirish uchun yuqori salohiyat mavjud.

Turkmanboshi shahrida o'tadigan uch tomonlama sammit ana shu salohiyatdan unumli foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi kutilmoqda.

Qayd etish joizki, shu yil 5 — 8-avgust kunlari Turkmanistonning “Avaza” milliy turistik hududida bo'lib o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida ham O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadovning uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tgan edi. Unda o'zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi.

Eng avvalo, energetika, transport va logistika, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Amaliy hamkorlikning istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish uchun mazkur formatdagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

O'zbekiston — Turkmaniston munosabatlari ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli so'nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2017-yil 6-martda imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma va 2022-yil 21-oktyabrda imzolangan Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya ikki tomonlama hamkorlikning mustahkam shartnomaviy-huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Munosabat

KO'NGLIMDA CHEKSIZ FAXR-IFTIXOR

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi uylar, korxonalarni barpo etish endilikda har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylanib qoldi. Negaki, bu qator ijtimoiy masalalar — aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish sari yo'l o'chadi, shuningdek, import o'rini bosadigan mahsulotlar tayyorlash imkonini beradi.

Bu borada biz, tadbirkorlarni davlatimiz har tomonlama qo'llab-quvvatlaymoqda. Prezidentimizning har yili 20-avgustda tadbirkorlar bilan uchrashib, sohaga ko'plab imtiyoz va yengilliklar berayotgani ham ishbilarmonlarga bo'lgan e'tibor namunasidir. Shunday tadbirkorlar safida ekanimdan qalbim faxr-iftixorga to'ldi.

Axir davlatimiz rahbari “Hech narsadan qo'rqmang, intilish va izlanishdan charchamang, faqat oldinga, katta marralar sari dadil qadam tashlang!” desa, kamtarin mehnatimiz yuksak taqdiralanib “Shuhrat” medaliga munosib topilsam, bundan g'ururlanmay bo'ladimi?

Prezidentimiz davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan ilk kunlardan oq tadbirkorlarga erkinlik berildi,

qulay ishbilarmonlik muhiti yaratildi. Natijada huda-behuda tekshirishlar butkul barham topdi, tijorat banklari yangi ish o'rni yaratib ishlayotgan mulkdorning yaqin hamkoriga aylandi.

Ochig'i, ilgari tekshiruvchi degani kelaverib, hujjatlarni titkilayverib ko'zni ochirmasdi. Ularning nazarida biz go'yo muttaham edik. Hatto ayrim davlat idoralari ham tadbirkorga o'gay ko'z bilan qarardi. Prezidentimizning uzoqni ko'zlagan odilona siyosati tufayli vaziyat tubdan o'zgardi. Davlat rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq-oshkora muloqoti mavjud kamchiliklarni muammolarga yechim bo'lmoqda. Shu bois ham chet ellik ekspertlar aytayotganidek, O'zbekiston beqiyos imkoniyatlar mamlakatiga aylanmoqda.



TAKLIF VA TASHABBUSLAR DARHOL KUCHGA KIRDI

Davlatimiz rahbarining yurtimiz tadbirkorlari bilan bu galgi ochiq muloqoti o'ziga xosligi, tarixiy yangiligi bilan yanada ahamiyatli bo'ldi. Gap shundaki, avvalgi uchrashuvlarda biznes vakillari tomonidan bildirilgan takliflar aks etgan hujjat bir necha hafta yoki oylardan so'ng chiqarilardi. Bu gal esa jarayon kechiktirilmadi, muloqot kunining o'zidayoq Yurtboshimizning “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi.

Bu amaliyot biz, tadbirkorlar uchun quvonchli, ayni paytda, kutilmagan yangilik bo'ldi. Axir ishbilarmonlar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, bildirilgan takliflar mamlakat yetakchisi tomonidan qo'llab-quvvatlanib, darhol amalga o'z ifodasini topa boshladi.

Chindan ham, Prezidentimizning joriy yilgi tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti hamda uni tashkil qilish doirasida o'tkazilgan 20 ta uchrashuvda 15 mingga murojaat kelib tushgan bo'lsa, Farmonda ularda ko'tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish hamda ochiq muloqotda ilgari

surilgan ustuvor vazifalarni bajarish aniq-ravshan belgilab berildi. Bu davlat va biznes o'rtasidagi ishonchli hamkorlikka yanada mustahkam poydevor yaratilganini anglatadi.

Ushbu tarixiy hujjatni kechaning o'zida o'qib chiqdim. Unda biznes yuritishda eng muhim jihatlar, ya'ni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish, tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va turizmni rivojlantirish, soliq to'lovchilarni rag'batlantirish choralari qamrab olingan. Sodda qilib aytganda, mazkur uch yo'nalish bo'yicha biznes tuzilmalariga hali iymiyotda bo'lmagan juda ko'plab yengillik va imtiyozlar berilyapti.

Bundan ikki yil oldin davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan aylanmadan soliq to'lovchilar buxgalteriyasini soliqchi yuritadigan tizim qilingan edi. Bu, shubhasiz, tadbirkorlar uchun juda katta qulaylik yaratdi. Endilikda 2026-yildan yer, mol-mulk, ijtimoiy va daromad soliqlari hisobotlarini shakllantirish bo'yicha tadbirkorlar majburiyati bekor qilinib, mazkur hisobotlar soliqchilar tomonidan beg'araz to'ldirib berilishi biz uchun katta mamnuniyat bag'ishlaydi. Yo'lga qo'yilayotgan ushbu tizim orqali “Soliqchi — tadbirkorga ko'makchi” tamoyili o'zining amaliy ifodasini topdi.

Men rahbarlik qilayotgan “Meridian Tempo” mas'uliyati cheklangan jamiyatiga 2007-yilda asos solingan. Garchi tadbirkorlik bo'yicha 25 yillik ko'nikmaga ega bo'lsam-da, qishloq xo'jaligi men uchun yangi tarmoq edi. Biroq tajribali mirishkorlarning maslahati va yetuk mutaxassislarning tavsiyasi orqali yer bilan tillaashdik, mo'l hosil garovini topdik.



Tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda ilgari surilgan eng muhim tashabbuslar

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA YANGI DASTUR IJROSIGA KIRISHILADI

Kelgusi uch yilda mehmonxona va turizm maskanlarini tashkil qilish uchun jami **5 ming gektar** yer auksionga chiqariladi. Bunda mehmonxona quraman degan tadbirkorlardan yerlarni sotib olish uchun to'lov undirilmaydi.

Yangi mehmonxona uchun ko'zda tutilgan subsidiya davlat obyektlari va xususiy binolarni sotib olib, mehmonxonaga aylantirgan tadbirkorlarga ham beriladi.

Hozir mehmonxona egalari har bir turist uchun **kuniga 62 ming so'mgacha** turistik yig'im to'layotgan bo'lsa, endi Toshkent shahri, viloyatlar markazi va yirik turistik hududlardan tashqari birorta joydagi mehmonxona **bu yig'imni to'lamaydi**.

Mehmonxona qurish uchun **7 yil** muddatga **2 yillik imtiyozli** davr bilan viloyatlar markazi va turizmga ixtisoslashtirilgan **36 ta** tumanda — **30 milliard so'mgacha**, boshqa hududlarda esa **10 milliard so'mgacha** imtiyozli kredit ajratiladi.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlardir.

Mahalliy mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari o'rtasida mukofot jamg'armasi **1 million dollarga** teng bo'lgan tanlov o'tkaziladi.

Amaldagi tartibga ko'ra, oilaviy mehmon uylari turistlarni qabul qilishi bo'yicha kunlik me'yor 10 nafardan oshmasligi belgilangan. Endi bu **raqam 2 karra ko'paytiriladi**.

Chortoq, Farg'ona, Boysun, Nurobod tumanlarida yil — o'n ikki oy xizmat ko'rsatadigan **300 — 500 gektarli** yirik kurort zonalar tashkil etiladi. Bu loyihalarning infratuzilmasi uchun **150 million dollar** beriladi. Natijada savdo va servis sohasida kamida **20 ming** tadbirkorlik subyekti, **100 mingta** ish o'rni paydo bo'ladi.



OCHIQ MULOQOT VA YANGI ISHONCH MAYDONI

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy oʻsishning eng muhim drayverlaridan biri – tadbirkorlik. Rivojlangan davlatlar ham, yangi taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlar ham aynan tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotini kuchaytirmoqda. Oʻzbekiston ham bundan mustasno emas. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan oʻtkazgan navbatdagi ochiq muloqoti bu yoʻldagi izchil harakatlarning mantiqiy davomi boʻldi.

Munosabat

Mazkur tadbir nafaqat muloqot maydoni, balki tadbirkorlikning jamiyatdagi oʻrni va qadrini yana bir bor namoyon etdi. Davlat rahbarining Farmoniga muvofiq, bir qator fidoyi tadbirkorlar taqdirlandi.

Yigʻilishda davlatimiz rahbari taʼkidlagan muhim tashabbuslardan biri – turizm sohasi va mehmonxona biznesini rivojlantirishga qaratilgani boʻldi. Sababi soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan inobatga olinib, kelgusi uch yil davomida jami 5 ming gektar yer aukson orqali tadbirkorlarga taqdim etilishi rejalashtirilmoqda. Eʼtiborlisi, mehmonxona qurmoqchi boʻlgan tadbirkorlardan yer uchun toʻlov undirilmaydi. Bu, oʻz navbatida, yirik loyihalarni boshlashga qiziqayotgan investorlar uchun qoʻshimcha imkoniyat va qulay sharoit yaratadi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi.

Davlat bu jarayonda oʻzini sherik sifatida koʻrsatmoqda. Yaʼni yer qiymati tadbirkor zimmasiga tushmasdan, aynan shu summa davlatning loyihaga ulushdor sifatida kirishiga xizmat qiladi. Bu esa, bir tomondan, davlat va xususiy sektor oʻrtasida oʻzaro manfaatli hamkorlik mexanizmini yaratadi, ikkinchi tomondan, turizm sohasida yangi qoʻshma loyihalarning paydo boʻlishiga zamin hozirlaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlar oʻn yil ichida istalgan vaqtda davlatning ushlarini qayta sotib olish huquqiga ega boʻladi. Bu esa biznesni yanada mustaqil qilish, uzoq muddatli barqarorlikni taʼminlash imkonini beradi. Yana bir ragʻbatlantiruvchi mexanizm shundaki, agar tadbirkor loyihaning boshida yer qiymatini toʻliq toʻlashni xohlasa, unga 20 foizlik chegirma taqdim etiladi.

Davlatning tadbirkorga qoʻshimcha yuk emas, balki sherik sifatida yondashishi nafaqat turizm va mehmonxona biznesining rivojlanishiga, balki umuman hududlarning iqtisodiy faollashuviga, yangi ish oʻrinlari yaratilishiga, mamlakatimizning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu maʼnoda, yangi tashabbusga Oʻzbekistonning turizm salohiyatini global darajada namoyon etishga xizmat qiluvchi muhim qadam sifatida qaralishi mumkin. Eng muhimi, ushbu masalalar Prezident Farmoni bilan tasdiqlangani ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-

tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonining ikkinchi bandida turizm sohasiga alohida eʼtibor qaratilgani, avvala, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida bu tarmoq tobora strategik ahamiyat kasb etayotganini koʻrsatadi. Farmonning “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda qulayliklar yaratish va turizمنى rivojlantirish” deb nomlangan bandi turizm sohasini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh qilishga yoʻnaltirilganini anglatadi.

Ayniqsa, 2026 – 2028-yillarda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga mehmonxona qurish uchun 7 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratilishi turizm sohasiga katta ragʻbat sifatida baholalanadi. Mablagʻlarning hududlar kesimida taqsimlanib viloyat markazlari, Toshkent va Nukus shaharlari hamda turizmda ixtisoslashtirilgan tumanlarda 30 mlrd. soʻmgacha, boshqa manzillarda esa 10 mlrd. soʻmgacha kredit ajratilishi hududiy turizمنى muvozanatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Farmonning yana bir muhim jihati – xalqaro maydonda nufuzli eʼtirofga sazovor boʻlgan joylashtirish vositalarini ragʻbatlantirish maqsadida yillik 1 mln. AQSH dollari miqdorida mukofot jamgʻarmasi joriy etilishidir. Bu tashabbus, avvalo, mehmonxonalar va turizm obyektlari oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirsa, ikkinchidan, ularning xalqaro standartlarga mos xizmat koʻrsatishini taʼminlaydi.

Yurtboshimizning tadbirkorlar bilan oʻtkazgan bu galgi uchrashuvi ham yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga yanada keng yoʻl ochishi bilan ahamiyatlidir. Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbus va takliflar, jumladan, berilayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy yengilliklar, imtiyozli kreditlar, boʻjxona va turizm sohasidagi imkoniyatlar yurtimizda tadbirkorlik muhitini erkinlashtirishga, investitsiyaviy va turistlik jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi nafaqat ichki iqtisodiyotni, balki Oʻzbekistonning mintaqaviy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

Ishonamizki, yangi imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlarga yangi ruh va shijoat baxsh etib, ularning istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qulay muhit yaratadi.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senatning
Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

YOSHLAR BANDLIGINI TAʼMINLASH MASALASI – KUN TARTIBIDA

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senati joylarda yoshlarning bandligini taʼminlash borasida koʻlamli ishlar olib boryapti. Shu maqsadda senatorlar hududlarda boʻlib turibdi.

Senator va hayot

Jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesinde Oliy Majlis Senati Kengashining “Oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari bandligini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bagʻishlangan uchrashuv oʻtkazildi.

Senatning Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Oral Ataniyazova ushbu qarorning ahamiyati haqida batafsil toʻxtaldi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda barcha soha qatori taʼlim yoʻnalishiga ham eʼtibor qaratilib, izchil islohotlar amalga oshirilmogʻda. Ayniqsa, yoshlarni oliy taʼlimga qamrab olish jarayoni yangi bosqichga koʻtarildi. Qisqa fursat ichida Qoraqalpogʻistonda ham oliy taʼlim muassasalari soni oshib, bugungi kunda ular 12 taga yetdi.

Yangi qabul qilingan qaror ham oliy oʻquv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan taʼminlash darajasini oshirishga qaratilgan boʻlib, mazkur yoʻnalishda oliyogʻlu va hududlar kesimida aniq rejalar tasdiqlangan. Shu bilan birga, ushbu ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida respublika ishchi guruhi tuzilgan hamda hozirgi kunda joylarda hududiy ishchi guruhlari tomonidan bitiruvchilari bandligini taʼminlash borasidagi ishlar oʻrganilib, tahlillar asosida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va qoʻshimcha mexanizmlar joriy etilmogʻda.

Yakunda kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Fargʻona davlat universitetida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orziqul Qozixonova hamda Fargʻona viloyati hokimining oʻrinbosari Sherzodjon Polvonov ishtirokida ishchi guruh yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda oliy taʼlim muassasalarining bitiruvchilarini ish bilan taʼminlash masalasi muhokama qilindi. Bunda zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash, yangi ish oʻrinlari yaratish

hamda oliy oʻquv yurtlari va ish beruvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish borasida fikr almashildi.

Taʼkidlanganidek, joriy yilda viloyatdagi oliyogʻohlarda oʻqishni 1 778 nafar yosh mutaxassis tamomladi. Ularning bandligini taʼminlash esa hududiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shu maqsadda amaliyot dasturlarini takomillashtirish, taʼlim jarayonlarini amaliy mashgʻulotlarga yoʻnaltirish hamda biznes hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Yigʻilish yakunida viloyat hokimligi huzurida maxsus shtab tuzildi hamda masʼul idora va tashkilotlarga bitiruvchilarni ish bilan taʼminlash boʻyicha aniq amaliy chora-tadbirlar koʻrish vazifasi belgilab berildi.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Sayyora Abdikarimova hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi raisi Oltiboy Rajabov Yangiariq tumanida tashkil etilgan oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarining bandligini taʼminlash masalalariga bagʻishlangan ishchi guruh shtabida boʻlib, bitiruvchi yoshlarni ishga joylash yoʻnalishida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Maʼlumotlarga koʻra, shu kunlarda tumanida 600 nafar ishsiz bitiruvchi mavjud. Ularning bandligini taʼminlash maqsadida tumanida bir qator amaliy chora-tadbirlar koʻrilgan. Jumladan, boʻsh ish oʻrinlari yarmarkasi oʻtkazilib, unda korxona va tashkilotlar faol ishtirok etgan hamda yoshlarga ish oʻrinlari taklif qilinib, huquqiy maslahat va tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, davlat dasturlari orqali qoʻllab-quvvatlash, mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan sohalar boʻyicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuborish ishlari yoʻlga qoʻyildi.

Tumandagi korxona va tashkilotlar rahbarlariga bitiruvchi yoshlarni mutaxassislgi boʻyicha ishga qabul qilish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi aʼzosi Gulnora Maʼrufova xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputatlari, tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari, shuningdek, jamoatchilik vakillari ishtirokida uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot davomida oliy taʼlim muassasalarini tamomlayotgan yoshlarni ish bilan taʼminlash, ular uchun yangi ish oʻrinlari yaratish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari atroficha koʻrib chiqildi.

Uchrashuvda bugungi kunda Toshkent shahrida 90 ta oliy taʼlim muassasasi faoliyat yuritayotgani va joriy yilda ularni 76,7 ming yigit-qiz bitirgani, ularidan 24,5 mingga poytaxtda doimiy istiqomat qilishi taʼkidlandi.

Mazkur jarayonni tizimli va samarali tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tomonidan tuman va shahar darajasida maxsus ishchi guruhlari tuzilgan. Ular zimmasiga bitiruvchilarning ish topishiga koʻmaklashish, shu jumladan, boʻsh ish oʻrinlari roʻyxatini shakllantirish, yakka tartibda suhbatlar oʻtkazish va bandlikni taʼminlash boʻyicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan aniq vazifalar yuklatilgan.

Shu maqsadda Senat Kengashi qarori asosida Harakatlar sxemasi ishlab chiqilgan boʻlib, unda amalga oshiriladigan mexanizm, masʼulalar va iro muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Samarqand viloyati hokimligida Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi Bahrom Abdullayev rahbarligida ishchi guruh yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Yoshlar bandligini taʼminlash uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning kasbiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish va muvaffaqiyatli ishga joylashtirish masalalari yigʻilish ishtirokchilari diqqat markazida boʻldi.

Xususan, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, yangi ish oʻrinlari yaratish yuzasidan fikr almashildi.

Taʼkidlanganidek, joriy yilda Samarqand viloyatidagi oliy taʼlim muassasalarini 2 899 nafar yosh mutaxassis bitirdi. Ularni ish bilan taʼminlash masalasi muhim va ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

“Xalq soʻzi”.

MENDAN KETGUNCHA, EGASIGA YETGUNCHAMI? YOKI QURILISHDA QONUNLARGA RIOYA QILMASLIK VA KOʻZBOʻYAMACHILIK QACHONGACHA DAVOM ETADI?

Jizzax shahridagi Zilol mahallasida xususiy tadbirkor tomonidan yangidan qurilayotgan koʻp qavatli uylardan biri qulab tushdi...

Qarshi shahrida yangi qurilayotgan mehmonxona konstruksiyasi qulashi oqibatida bir ishchi halok boʻldi. Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi hodisadan sal oʻtmay ushbu obyekt noqonuniy qurilish boʻlgani haqida rasmiy bayonot eʼlon qilidi...

Samarqanddagi 12 qavatli bino buzilmoqda. Sud bino shaharsozlik hujjatlarisiz noqonuniy qurilgani bois uni buzish boʻyicha hukm chiqargan...

Yuqorida tilga olingan hodisalar mamlakatimizning turli hududlarida, turli vaqt oraliqʻida sodir boʻlgan va... davom etyapti. Tabiiyki, bu qurilishlar aynan bir tashkilot tomonidan amalga oshirilmagan. Ammo ularni bogʻlab turadigan bir jihat bor: qonunlarga rioya qilmaslik, qurilish tartib-taomillarini nazarga ilmaslik va koʻzboʻyamachilik.

Senat muhokamasidan soʻng...

Sifatsiz uylar, haqli eʼtirozlar

Keyingi yillarda qurilish industriyasi rivoji yangi bosqichga koʻtarilib, ushbu soha milliy iqtisodiyotimizning drayverlaridan biriga aylandi. Soʻnggi sakkiz yil davomida qurilish ishlari hajmi bir necha barobar ortib, 2016-yildagi 30 trln. soʻmdan 2024-yilda qariyb 234 trln. soʻmga yetgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Oʻtgan yili yurtimizda 40 mln. 500 ming kvadrat metr bino va inshoot qurilgan boʻlsa, joriy yilda ushbu raqam 45 mln. kvadrat metrdan oshishi kutilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan, shaharlarni jahon standartlari asosida rivojlantirish, qurilish ishlarni samarali tashkil etish hamda aholiga munosib yashash sharoitlarini yaratish sohasida hal qilinishi lozim boʻlgan ayrim muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Ayniqsa, ushbu sohada belgilangan qonun-qoidalariga har doim ham birdek amal qilinmayotgani aholining haqli eʼtirozlariga va jamoatchilik orasida qizgʻin muhokamalarga sabab boʻlayotgani sir emas. Qurilishlar sabab yashil maydonlar kamayib ketayotgani, daraxtlar noqonuniy kesilayotgani bilan bogʻliq holatlar bot-bot tilga olinmoqda.

Shu yil 16-iyun kuni Prezidentimiz

raisligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi, aholini oʻylantirayotgan masalalarga yechim topish yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida ham ushbu sohadagi muammolar tilga olingan edi.

Unda masalaning anchayin jiddiy va dolzarbligi sabab Prezidentimiz masʼullar yashil hududlar, odamlar toza havoga chiqib oʻtiradigan joylar, sport maydonchalari, favvoralarni koʻpaytirishga yetarlicha eʼtibor qaratmayotganini, mavjudlari ham qurilish uchun berib yuborilganini tanqid qilgan edi.

Aksariyat hollarda bunday muammolardan oddiy aholi ziyon koʻryapti. Boshpanaga ega boʻlish ilinjida yillab terib-tergagan pulini bir firibargarga qoʻshqoʻllab topshirib, oqibatda uysiz qolayotgan yurtdoshlarimiz ham yoʻq emas...

Parlament soʻrovi: savollar koʻp...

Mana shunday holatlarni hisobga olgan holda Oliy Majlis Senatining yaqinda boʻlib oʻtgan toʻqizinchi yalpi majlisida hududlarda infratuzilamni rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish boʻyicha koʻrilayotgan choralar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament soʻrovi yuborish masalasi muhokama qilindi.

Majlisda senatorlar tomonidan ayrim hududlarda mazkur sohaga oid qonun hujjatlariga toʻla rioya qilinmayotgani, ayniqsa, koʻp qavatli uylarga tutash hududlarda oʻzboshimchalik bilan, noqonuniy ravishda qurilish ishlarni amalga oshirish, umumiy foydalanish joylarini toʻsib olish holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar talab darajasida emasligi taʼkidlandi. Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi aʼzolari oʻrganishlari natijasida qurilishlarda yuz berayotgan qonunbuzilish holatlari boʻyicha aniqlangan faktlar keltirildi.

Yaqinda Toshkent shahrida 60 ga yaqin koʻp qavatli uy-joylar qurilishi toʻxtatilgani eʼlon qilindi. Sababi quruvchi tashkilotlar ishini

shugʻullanish emas, balki qanday yoʻl bilan boʻlmasin, boylik orttirish ekanligi ayon boʻlib qolyapti. Bu yoʻlda ular eng arzon va sifatsiz mahsulotlardan foydalanib, koʻzboʻyamachilikka borib yetyaptilar. Ammo ularning nazorati bilan shugʻullanadigan tashkilotlar qayerga qarayapti? Nahotki, ular binolarni qabul qilgunlaricha bunday soxtakorliklarni aniqlay olmagani boʻlsa?..

Senat qoʻmitasi ishchi guruhi oʻrganishlariga koʻra, 102 ta koʻp kvartirali uy qurilishida sifatsiz va loyiha hujjatlariga koʻrsatilgan rusumdand past mustahkamlikdagi beton materiallari ishlatilgan.

Qurilish yakunlanmasdan topshirilgan yoki shaharsozlik norma va qoidalariga zid qurilgan 74 ta obyektlar

Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasida hech qanday eʼtiroz uyʻotmagan. Masalan, Yashnobod tumani, Parkent koʻchasidagi 9 qavatli 182 kvartiraga ega uy “First Development Group” MCHJ tomonidan oʻta sifatsiz qurilgan boʻlsa-da, foydalanishga qabul qilingan. Oqibatda xonadon sotib olgan 102 nafar fuqaroning hayoti xavf ostida qolgan va ular haqli eʼtiroz bilan masʼul idoralarga murojaat etgan.

Bundan tashqari, arxitektura-shaharsozlik kengashlarining faoliyat yuritish tartibi toʻliq elektron tizimga oʻtkazilmaganligi sababli 185 ta holatda obyektlarning loyiha hujjatlariga chegaralar va muhofaza joylari, yashil hudud, avtoturargoh va bolalar maydoni tashkil etishga oid talablar hisobga olinmasdan ijobiy xulosa berilgan. Xususan, yana oʻsha Yashnobod tumani daraja salkam 5 gektar maydonda koʻp qavatli turarjoy obyekti qurilishi boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarida qator jiddiy xato va kamchiliklar boʻlsa-da, ularga koʻz yumilgan.

Shaharsozlik normalari va qoidalariga koʻra, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida

joylashgan koʻp qavatli turarjoy binolarida 1 ta xonadon hisob borligiga 1 ta avtoturargoh boʻlishi zarurligiga qaramasdan loyiha hujjatida ushbu norma toʻliq inobatga olinmagani (norma boʻyicha 3 415 ta avtomobilga moʻljallangan avtoturargoh boʻlishi kerak boʻlsa, loyihada 2600 ta rejalashtirilgan). Bolalar oʻyin maydonlari boʻyicha belgilangan meʼyorlarga (1 kishi uchun 1,5 kvadrat metr) ham amal qilinmagan.

Ayrim hollarda loyiha hujjatlariga notoʻgʻri va haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan maʼlumotlar kiritilgan. Masalan, loyihada yashil hudud va yoʻl sifatida koʻrsatilgan joylar amalda aholi yashab turgan xonadonlar hududiga toʻgʻri kelgan.

Koʻp qavatli uylar oʻrtasidagi oraliq va tashqi hududgacha boʻlgan masofalar belgilangan talablarga zid ravishda bir necha barobar qisqartirib loyihalashtirilgan – kamida 58 metr boʻlishi kerak boʻlgan joyda 20 metr masofa qoldirilgan.

Shuncha xato va kamchiliklar borligiga qaramasdan hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi bunday loyihalar yuzasidan ijobiy fikrni bergani qanday tushunish mumkin?

Eng muhimi, aksariyat loyihalar shu hududda yashayotgan aholi oʻrtasida muhokama qilinmagan va jamoatchilik ekspertizasidan oʻtkazilmagan. Vaholanki, 2019-yil 13-dekabrda qabul qilingan “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini taʼminlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Prezident qarorida aholi maskanlarining meʼmoriy qiyofasini tubdan yangilash va obodonlashtirish, shuningdek, ularda kompleks qurilish va rekonstruksiyalash ishlarni amalga oshirishga oid qarorlar dastlab oʻsha hududdagi aholi oʻrtasida muhokama etilib, jamoatchilik ekspertizasidan oʻtkazilishi zarurligi qatʼiy belgilab qoʻyilgan.

Qurilish ishlari doimo nazoratda boʻlishi shart

Senat yalpi majlisida ayni masalalar yuzasidan mutasaddi tashkilotlar oldiga

Shu munosabat bilan taʼlim jarayonini amaliyotga uygʻunlashtirish, oʻquv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ravishda qayta koʻrib chiqish, biznes hamjamiyati, xususiy sektor va ish beruvchilar bilan samarali va uzviy hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligi alohida taʼkidlandi. Bu esa, oʻz navbatida, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yigʻilish yakunida masʼul idora va tashkilotlarga bitiruvchilarning bandligini taʼminlash boʻyicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish vazifalari yuklatildi.

Namangan viloyatida ham respublika ishchi guruhining oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari bandligini taʼminlash, ularni mehnat bozoriga samarali jalb etish va kasbiy salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish masalalariga bagʻishlangan yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari Odiljon Mamatkarimov, vazirlik va idoralar mutasaddilari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, taʼlim muassasalari rahbarlari hamda tadbirkorlik subyektlari vakillari ishtirok etdi.

Muloqot chogʻida bitiruvchilarning bandligini taʼminlash, ularga mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan mutaxassislilar boʻyicha ish taklif qilish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish hamda davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Shu bilan birga, hududlarda ish oʻrinlari yaratish, ish beruvchilar va oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida doimiy muloqotni taʼminlash, stajirovka va amaliyot dasturlarini kengaytirish, mehnat bozoriga talab va taklifi muvofiqlashtirish boʻyicha aniq vazifalar belgilandi.

Yigʻilish yakunida masʼul idoralar va mahalliy hokimiyat mutasaddilarga bitiruvchilari bandligini taʼminlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

MILLIY RAQAMLASHTIRISH SIYOSATI INSONGA XIZMAT QILMOQDA

Zamonaviy sivilizatsiya hozirda miqyosi bo'yicha sanoat inqilobiga teng keladigan, ammo shiddati undan ham ulkan transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Raqamlashtirish va sun'iy intellekt – bu shunchaki yangi texnologiyalar yoki iqtisodiyotning yangi tarmoqlari emas, balki tamoman yangi yashash muhiti, ishlab chiqarish, muloqot, boshqaruv va voqeikni anglashning yangi usuli. Ular insoniyat hayotining kundalik odatlaridan tortib global moliyaviy oqimlar, sog'liqni saqlash tizimlari va shaxsiy identifikatsiyagacha bo'lgan bosqichlarni o'zgartirmoqda.

Mushohada

Yangi reallikda milliy suverenitet, iqtisodiy raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlik endilikda faqat katta hududlar, foydali qazilma zaxiralari bilan emas, balki davlat va jamiyatning ma'lumotlarni samarali ravishda yaratish, qayta ishlash va ulardan foydalanish, shuningdek, intellektual mashina algoritmilarini ishlab chiqish va joriy etish qobiliyati bilan belgilanadi. Bu sohalarning bozor mexanizmlariga asoslangan rivojlanishi, albatta, yaxshi. Biroq u raqamli tafovutga, texnologik qaramlikka, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga va ilgari mavjud bo'lmagan yangi tahdidlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Shu bois raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli, puxta o'ylangan va milliy harakatlari rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish har bir davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan keyingi sakkiz yilda raqamlashtirish sohasida keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Sohani rivojlantirishning yaxlit va global strategiyasi shakllantirildi. Davlat va jamiyatning global raqamli transformatsiyasini boshlash uchun mutlaqo yangi muhit yaratildi. Bugungi o'zgarish va natijalar davlatimiz rahbarining strategik tafakkuri bilan yuzaga chiqdi.

Prezidentimiz raqamlashtirishni faqat IT-mutaxassislar uchun texnik vazifa emas, balki umumxalq, umumjamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab, "XXI asrda davlat qudrati ko'p jihatdan texnologik suverenitet bilan, fuqarolarning farovonligi esa raqamli xizmatlarning mavjudligi va sifati bilan belgilanadi" degan yangi paradigmamni aniq ifoda qilib berdi. Bu qat'iy ishonch sohadagi katta sakrashlarning harakatlantiruvchi omiliga aylandi.

Davlatimiz rahbarining bu boradagi siyosati va yetakchiligi topshiriqlarda emas, balki mamlakat IT-landshaftini qisqa muddat ichida tubdan o'zgartirgan aniq, inqilobiy qarorlarda o'z ifodasini topdi. Aynan Prezident tashabbusi, nazorati va qo'llab-quvvatlashi bilan milliy IT-park yaratildi. Uning rezentlariga juda katta imtiyozlar berildi. Natijada IT-park – O'zbekiston yangi iqtisodiyotining ramzi va "tashrif qog'ozi"ga aylandi.

Bugungi kunda fuqarolar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanmoqda. Bu platformani yaratishdan asosiy maqsad – davlat va barcha amaldorlar fuqarolarga qulay bo'lgan usulda xizmat ko'rsatishini tashkil etish. Bugun bunga erishildi. Mana shunday inqilobiy o'zgarish Prezidentning adolatlari, insonparvar siyosatining yorqin dalilidir.

Prezident maktablari, "Bir million dasturchi", "Bir million axborot texnologiyalari sohasi mutaxassisi". Davlatimiz rahbarining muallifligidagi mana shunday o'ziga xos innovatsion loyihalar bizga millatning asl boyligi aql-zakovat va ijodkorlikda ekanligini chuqur anglatmoqda. Prezidentimiz qisqa muddatli foydaga emas, balki uzoq muddatli inson kapitaliga sarmoya kiritmoqda. Shu orqali kelgusi o'n

yilliklarga mo'ljallangan farovonlik poydevori qo'yilmoqda.

O'zbekiston yetakchisining qat'iyati bilan mamlakatimiz raqamli transformatsiyaning xalqaro maydoniga chiqdi. Toshkent sohadagi nufuzli xalqaro forumlarga mezbonlik qilmoqda. Bu voqeiklar mamlakatimizni mintaqaviy IT xab va global raqamli kun tartibining jiddiy ishtirokchisiga aylantirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning raqamlashtirish va sun'iy intellekt-ni rivojlantirish borasidagi nafaqat milliy, balki global yetakchiligi sohaga qo'shgan salmoqli hisssasi va o'ziga xos yangi tizim shakllantirgani bilan yaqqol ko'rinmoqda. U – O'zbekiston texnologik uyg'unlash davrining bosh me'mori. Bugun raqamlashtirish konsepsiyadan haqiqatga aylandi. Texnologik loyihalar insonparvarlik mazmuni bilan boyib bormoqda. Prezident tarixan qisqa fursatda xalqimizni taraqqiyot sari yetaklab, uning raqamli kelajakda munosib o'rin egallashini ta'minlashga barcha kuchini safarbar qilmoqda. Bu siyosat markazida inson turgani uchun ham xalqaro e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

Ilhom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovation rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi.

Ochiq parlament

MAHALLA RAISLARI BILAN MULOQOT

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mahalla raislari bilan muloqot o'tkazildi.

Unda deputatlar, O'zbekiston mahallalari uyushmasi mutasaddilari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari vakillari, qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashi a'zolari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.



Uchrashuvda Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallaning aniq tuzilmasi shakllantirilib, islohotlarning hal qiluvchi bo'lganiga aylangan ta'kidlandi. "Mahalla yetiligi" tizimining joriy etilishi mavjud muammolarni uyuma-uy yurib, hal qilish imkoniyatini bergani urg'ulandi.

Joriy yil may-iyun oylarida mamlakat bo'ylab mahalla raislari saylovlarini yangi tartibda, demokratik tamoyillari asosida, shaffof va ochiq muhitda yuqori saviyada o'tkazilgani yuzasidan ma'lumot berildi.

Shuningdek, "mahalla yetiligi" tizimi vazifalarini samarali amalga oshirish, mahalla institutini

qonunchilik va amaliyotda yanada mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

Aytilganidek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamkorligida sohaga oid qonun hujjatlarini ijrosini ta'minlash va yangi tashabbuslarni ilgari surish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Mahallalarni ishsizlik, kambag'allik, oilaviy ajralishlar, migratsiya va jinoyatchilikdan xoli hududlarga aylantirish maqsadida muhim chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Har bir mahallaning ijtimoiy-

iqtisodiy holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasiga kiritilgani e'tiborga molik.

Muloqot davomida mahalla raislari yigirmaga yaqin taklif va masalalarni ilgari surdi. Takliflar, asosan, mahalla faoliyatidagi muammolarni bartaraf etish, raislar mavqeini yanada oshirish hamda tizim samaradorligini kuchaytirishga qaratilgani e'tiborga molik.

Konstruktiv ruhda o'tgan tadbir yakunida kelgusi rejarlar yuzasidan maslahatlashuvlar o'tkazilib, mavzuga oid muhokamalarni muntazam ravishda tashkil etishga kelishib olindi.

Abdullo ASLONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Ikki yuzga yaqin mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan muloqot juda samarali bo'ldi. Aholini o'ylantirayotgan masalalar, mahalla raislari oldida turgan muhim vazifalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid qabul qilingan qonunlar haqida fikrlashdik. "Fuqarolar yig'inini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning ahamiyati, mahalla raislarining vakolat muddati uzaytirilishining o'ziga xos sabablari haqida ham mulohazalarimizni bildirdik. Ochiq'ini aytganda, bugungi kunda aholi farovonligini oshirishga oid juda ko'plab masalalar mahallalarda hal etilyapti. Odamlar bilan yaqin muloqot o'rnatish, hududdagi muammolarni hal qilish uchun mahalla raisidan katta tajriba va mahorat, aholi yashash tarzini yaxshi bilishi talab etiladi. Muloqot davomida ushbu jihatlariga alohida e'tibor qaratildi. Qolaversa, "mahalla yetiligi" faoliyati, belgilangan vazifalar ular tomonidan qanday bajarilayotgani, o'z yechimini kutayotgan ayrim masalalar diqqat markazimizda bo'ldi. Juda ko'p masalalarga oydinlik kiritildi, ayrim muammolarni qo'mitamiz tomonidan bevosita tegishli tashkilotlar bilan birgalikda yechimini topishga harakat qilamiz. Mahalla raislari tomonidan qonunchilikka oid bildirilgan takliflar, ilgari surilgan tashabbuslar esa, albatta, qo'mitamiz ishchi guruhida atroficha ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi.

Olimjon MIRZABAYEV,
Olimzod tumanidagi "Oltinsoy" MFY raisi:

– Mahallamizda 6 548 nafar aholi istiqomat qiladi. Ko'p millatli mahallamizda 17 millat vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda. Deputatlar bilan uchrashuvda bu haqda o'z mulohazalarimizni bildirib, dolzarb masalalarni ham ko'tardik. Xususan, oilaviy ajrimlar, ularning kelib chiqish sabablari ko'rib chiqildi. Uchrashuvda ushbu muammolarga yechim topish maqsadida bir qator takliflar bildirildi. Oila, nikoh bilan bog'liq qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlardan xabardor bo'ldik. Fikrlarimizni xalq vakillari diqqat bilan tinglashdi, savollarimizga javob oldik. Bu kabi muloqotlarning muntazam o'tkazilishi tarafdorimiz.

Husan MALIKOV,
yosh tadbirkor:

– Yoshim 16 da, bolaligidan yog'och o'yimkorligi hunariga qiziqaman. Uning sir-asrorlarini bobom va otamdanda o'rganganman. Hozirda "Oltinsoy" MFYda tashkil etilgan Yoshlar mehnat guzarida ustozlarim va tengdoshlarim bilan ishlayapman. Kelgusida xalqaro miqyosda milliy yog'och o'yimkorligi san'atimizni keng yoyib, uni dunyoga tanitadigan tadbirkor bo'lish – eng katta orzu va maqsadim. Deputatlar bilan muloqot chog'ida ulardan zarur tavsiyalarni oldim.

"Xalq so'zi".

ADOLATLI SOLIQ TIZIMI – TARAQQIYOT UCHUN KAFOLAT

Har bir rivojlanayotgan mamlakatda adolatli soliq tizimi – iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik rivoji va Davlat byudjetining asosiy tayanchi hisoblanadi.

Fikr

Tadbirkorlar kunida, an'anaga ko'ra, biznes hamjamiyati bilan muloqot qilgan Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik subyektlari uchun amalga oshirilgan ishlar va bir qator yangiliklarni aytib o'tdi. Bunda amaldagi tartibga binoan, yillik aylanmasi 10 mlrd. so'mdan oshgan korxonalar foyda solig'i bo'yicha avans to'lagani uchun aylanma mablag' masalasida qiyinchilik yuzaga kelayotgani aytib o'tildi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, korxona yil oxirida foyda olish yoki yo'qotishga uchrashi aniq bo'lmasa ham, dastlabki ma'lumotlarga asosan soliq to'laydi. Ushbu soliq haqiqiy daromaddan oldin to'langani sababli yangi ochilgan korxonalar, aylanma mablag'lari katta, lekin real daromadi kam bo'lgan bizneslar, investitsiya qilgan loyihalar vakillari mazkur shartdan qisman norozi edi. Shu bois endi ushbu tartib faqatgina yiliga 20 mlrd. so'mdan yuqori aylanmaga ega korxonalar uchun amal qilishi va buning natijasida 14 mingga yaqin tadbirkorlar

ixtiyorida qo'shimcha 1 trln. so'mlik aylanma mablag' qolishi aytib o'tildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari qo'shimcha qiymat solig'i stavkasining 12 foizga tushirilgani hisobiga soliq rejimida ishlayotgan tadbirkorlar soni kun sayin ko'payganligi, lekin hali ko'pchilik qo'shimcha qiymat solig'i'ga o'tsa, hisob-kitob qiyinlashishi, xarajat oshishidan shubha qilayotganini ta'kidlab o'tdi. Bundan keyin aylanma soliqdan qo'shimcha qiymat solig'i'ga o'tadigan korxonalarning bir yil davomida foyda solig'i to'lashdan ozod etilishi, hisobotida xatolik bo'lsa ham jarima qo'llanmasligi, bug'alterlar maoshining 5 mln. so'mgacha bo'lgan qismi olti oygacha bunday korxona to'layotgan soliqdan chegirib tashlanishi tadbirkorlar uchun qulay imkoniyat sifatida qaratilmoqda.

Ayniqsa, 1-noyabrga qadar tadbirkorlarimizga barcha xato va kamchiliklarni ixtiyoriy ravishda to'g'rilash imkoni berilishi va shu sanadan so'ng biznes vakillari tadbirkorlik reytingini "toza sahifadan" boshlashi qayd etildi. Ikki yil oldin aylanmadan soliq to'lovchilar

bug'alteriyasini soliqchi yuritadigan tizim joriy qilinishi – soddalashtirish soliq hisob-kitoblari, vaqt va resurs tejamkorligi, jarimalar va xato kamayishiga, tekshiruvlar sonining qisqarishiga, soliq intizomining yaxshilanishi va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga olib keldi. Endi xizmatlar ko'lamini kengaytirish va kelgusi yildan yil, mol-mulk, ijtimoiy va daromad solig'larini hisobotlarini shakllantirish bo'yicha tadbirkorlar majburiyati bekor qilinishi, ushbu hisobotlarni soliqchilarning o'zi bepul to'ldirib berilishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi. Agar hisobotga tuzatish kiritish talab etilsa, tadbirkorlar uchun 5 kunda to'g'rilash imkoni borligi ham qo'llab-quvvatlandi.

Adolatli soliq tizimi – bu davlat va biznes o'rtasidagi ishonch poydevori. Uning asosiy maqsadi soliq to'lashni qiyinlashtirish emas, balki odil, tushunarli va maqbul qilishdir. Tadbirkor uchun qulay va adolatli soliq muhiti yaratilsa, u faol rivojlanadi, davlat esa barqaror byudjetga ega bo'ladi.

Baxtiyor ARTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.

MAQSADIMIZ ANIQ:

Davlat rahbari bilan har yili bir necha yuzlab tadbirkorlarning bevosita muloqoti va masalaning joyida yechilishi xalqaro amaliyotda juda kamdan-kam uchraydigan hodisa. O'zbekistonda ana shunday jonli va samimiy muloqotning beshinchii marotaba o'tkazilganining iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va huquqiy ahamiyati nihoyatda ulkan.

Barchamiz guvohi bo'lganimizdek, shu yil 20-avgust kuni Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotida iqtisodiyotimizning tayanchi bo'lgan, katta kuch – tadbirkorlar hamjamiyati uchun navbatdagi juda muhim imkoniyatlar va imtiyozlar e'lon qilindi.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

"Biznesni 15 daqiqada boshlash" tamoyilidan tortib, Investitsiya kodeksini qabul qilishgacha bo'lgan juda ko'plab yangiliklar minglab tadbirkorlarimiz uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu taklif va tashabbuslar iqtisodiy taraqqiyotimizning navbatdagi bosqichining tizimli masalalarini yechib berdi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, O'zbekistonning sakkiz yil avvalgi tadbirkori bilan bugungi tadbirkorining farqi qanday? Avvalo, aytish kerakki, o'tgan qisqa davrda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda shiddatli ishblarmonlik ruhi uyg'ondi. Bir vaqtlar qo'rquv va sarosima bilan ish boshlagan tadbirkor bugungi kunga kelib katta kuch hamda g'ayrat, hayotbaxsh ilhom bilan bu sohaga qadam qo'yarmoqda. Xalqimizning esa tadbirkorga mehiri, ishonchi va hurmati oshmoqda.

Albatta, bunday natijalarga osonlik bilan erishilgani yo'q. Quyida amalga oshirilgan tadbiriy islohotlarning eng muhimlariga to'xtalib o'tsak.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa muddatda iqtisodiyotning moliyaviy barqarorlashuviga erishilgan, institutsional o'zgarishlar amalga oshirilgani, iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlariga asos solingani, kichik va o'rta biznes rivoji uchun kuchli turtki beruvchi yangi mexanizmlarning ishga solingani mamlakat iqtisodiyotining qiyofasini o'zgartirib yubordi.

Buni 2016-yilda O'zbekistonda 250 ming atrofida tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich qariyb 600 mingga yetgani misolida ko'rish mumkin. Ya'ni so'nggi sakkiz yilda tadbirkorlar soni ikki yarim barobardan ko'proq oshdi. Bu o'sishning asosiy sabablaridan biri biznesga yaratilayotgan imkoniyatlardir.

Ortiqcha byurokratiya va hujjatbozlik barham topdi. Soliq turlari qisqartirildi, stavkalar pasaytirildi. Aholi va tadbirkorlardan

120 turdagi hujjatlarni talab etish bekor qilinib, yana shuncha litsenziya raqamlashdi. Birgina o'tgan yili 16 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi, natijada tadbirkorlarning 350 mlrd. so'mlik xarajatlari tejaldi. Biznes ochish jarayoni qisqa vaqt ichida amalga oshiriladigan soddagina aylandi.

Ilgari tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishga bir necha kun vaqt talab etilgan bo'lsa, hozirgi kunda mazkur jarayon to'liq

“Ortiqcha byurokratiya va hujjatbozlik barham topdi. Soliq turlari qisqartirildi, stavkalar pasaytirildi. Aholi va tadbirkorlardan 120 turdagi hujjatlarni talab etish bekor qilinib, yana shuncha litsenziya raqamlashdi. Birgina o'tgan yili 16 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi, natijada tadbirkorlarning 350 mlrd. so'mlik xarajatlari tejaldi. Biznes ochish jarayoni qisqa vaqt ichida amalga oshiriladigan soddagina aylandi.”

elektron shaklga o'tgan. Litsenziya va ruxsat berish turlari 2 barobar qisqartirilib, 100 dan ortiq ruxsatnoma turlari bekor qilindi.

Tadbirkorlar bilan muloqot tizimi tubdan takomillashtirildi. Prezidentimizning ular bilan uchrashuvi an'anaviy tus olib, har yilgi muloqot jarayoni juda katta tayyorgarlik va tadbirkorlar oldida turgan ko'plab masalalarning yechimiga xizmat qilmoqda.

Masalan, ilk ochiq muloqotdan buyon ishblarmonlarning mingga yaqin tashabbuslari qonunchilikka kiritildi. Buning natijalarini nafaqat tadbirkorlar, balki butun aholi o'zining kundalik hayotida his qilmoqda. Biznesni "soya"dan chiqarish choralarini natijasida 139 mingta korxonada ish o'rnlari 811 mingtaga ko'paydi. 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foizga oshirdi.

Mamlakatimizda 20-avgust "Tadbirkorlar kuni" sifatida belgilangani ishblarmonlikning davlat va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rini e'tirof etish, ularning nufuzini oshirish hamda jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Ushbu sana arafasida har yili faol va namunaviy tadbirkorlar davlat mukofotlari, shu jumladan, "Faol tadbirkor" ko'krak nishonlari bilan taqdirlanmoqda. Bu esa sohaga bo'lgan davlat e'tiborining amaliy ifodasidir.

Mamlakatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklidagi navbatdagi uchrashuvining Yangi Toshkentda o'tkazilgani ham uning o'ziga xos ma'no va mazmun baxsh etdi. Chunki Yangi Toshkent, Prezidentimiz aytganidek, "islohotlarimiz hayotda qanday aks etayotganining yaqqol isboti, yangilanish va taraqqiyot yo'lidagi dadil qadamlarimizning yorqin timsoli" bo'lib qolmoqda.

Biznes uchun yangi sharoitlarni yaratib berish yo'lidagi harakatlilar bu yil ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Davlatimiz rahbari tomonidan uchrashuvda davlat ulushi bo'lmagan korxonalarga eksportda muddati o'tgan qarzdorlik uchun

Muloqotda investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solish, sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish va ularga sharoitlar yaratish bo'yicha yuzlab hujjatlar borligi, ularning hammasini to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan yagona qonunga birlashtirib, Investitsiya kodeksini ishlab chiqish vaqti kelgani urg'ulandi. Ushbu tashabbus O'zLiDeP saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalarga uyg'un va hamohangdir.

Mazkur tashabbus partiyamiz elektorati bo'lgan ming-minglab tadbirkorlarimizning ayni dilidagi gap bo'lib, ularga yangi kuch-g'ayrat bag'ishladi, ularni milliy iqtisodiy taraqqiyotida yanada faol bo'lishga chorladi. Chunki mazkur hujjat investitsiya sohasidagi barcha qoida, kafolat va tartib-taomillarni bir tizimga solib, investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu oqilona tadbir O'zbekistonni tadbirkorlar mamlakatiga aylantiradi.

Islohotlar nafaqat son jihatdan o'sishni, balki sifat jihatdan o'zgarishlarni ham ta'minladi. Xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Xususiyl sektorda yaratilgan ish o'rnlari soni esa umumiy ish o'rnlarning qariyb 75 foiziga teng. Shu bilan birga, oilaviy biznes, fermer va dehqon xo'jaliklari, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasida ham sezilarli o'sish kuzatildi.

Moliya bozori va valyuta siyosatida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ilgari milliy valyuta – so'mni erkin ayirboshlash katta muammo bo'lgan bo'lsa, 2017-yildan keyin u to'liq konvertatsiya qilindi. Bu qadam tadbirkorlar va investorlar uchun ishonchli muhit yaratib berdi. Bank tizimida elektron xizmatlar kengaydi, kredit mahsulotlari turlari ko'paydi, moliya operatsiyalari shaffoflashdi. Natijada iqtisodiyotda ochiqlik va ishonch muhiti paydo bo'ldi.

So'nggi sakkiz yil davomida soliq, byudjet, pul-kredit siyosati va boshqa iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishning huquqiy asoslariga oid ko'plab yangi qonunlar qabul qilindi. Qonun hujjatlarida chet ellik ishblarmonlar va investorlar huquqlarining himoyasi kuchaytirildi. Ularga O'zbekistonda ko'chmas mulk sotib olish, kelib-ketish va yashash shartlarini soddalashtirishning huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda

tanlashga haqli ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Mazkur normaning Bosh qomusimizda aks ettirilishi tadbirkor uchun qonun hujjatlarida cheklov qo'yilmagan iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Yana bir hayotiy misol: soliq va biznes muhitida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu tizimda ortiqcha byurokratiya va hujjatbozlik barham topdi. Soliq turlari

hamda sotishga bozor tamoyillarini joriy etish orqali davlat monopoliasiga barham berildi.

Ushbu o'zgarishlar natijasi va samarasini bugun xalqaro hamjamiyat e'tirof etmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'rni 48 pog'onaga, Garvard iqtisodiy murakkablik indeksida 28 pog'onaga ko'tarildi. 2025-yilda Barqaror taraqqiyot indeksida O'zbekiston o'z mavqeini birdaniga 19 pog'onaga yaxshilab, 62-o'ringa

“Ushbu o'zgarishlar natijasi va samarasini bugun xalqaro hamjamiyat e'tirof etmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'rni 48 pog'onaga, Garvard iqtisodiy murakkablik indeksida 28 pog'onaga ko'tarildi. 2025-yilda Barqaror taraqqiyot indeksida O'zbekiston o'z mavqeini birdaniga 19 pog'onaga yaxshilab, 62-o'ringa ko'tarilganligi qayd etildi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimiz 8-o'rin, kredit olish imkoniyatlari bo'yicha esa 22-o'rinni band qildi.”

qisqartirilib, stavkalar pasaytirildi. Biznes ochish jarayoni qisqa vaqt ichida amalga oshiriladigan soddagina aylandi. Shu bilan birga, litsenziya va ruxsatnoma turlari ikki barobardan ko'proq qisqartirildi. Bunday o'zgarishlar tadbirkorlik muhitini ancha yengillashtrdi va kichik hamda o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada ortishiga olib keldi.

O'tgan davrda sanoat va infratuzilma sohalarida ham yangi korxonalar ishga tushirilib, energetika sohasida zamonaviy elektr stansiyalari qurildi. Bugungi kunda O'zbekiston, nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari, balki kimyo, mashinasozlik va qurilish materiallari sohalarida ham eksportchi mamlakatga aylanib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha muvozanatli rivojlanishidan dalolat beradi.

Fermerlarga ekin turini erkin tanlash huquqi berildi. Agroklasterlar tizimi yo'lga qo'yilib, meva-sabzavot eksporti ikki barobar ortdi. Yerdan foydalanish huquqini taqdim etishda elektron auksionlar tizimi yo'lga qo'yildi, ochiqlik va samaradorlik ta'minlandi. Bugun qishloq xo'jaligi nafaqat ichki bozor ehtiyojini qondirmoqda, balki mamlakat iqtisodiyotiga valyuta kirituvchi yetakchi tarmoqqa aylandi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi sohadagi islohotlarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2020-yildan paxta va g'allani yetishtirish, xarid qilish

ko'tarilganligi qayd etildi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimiz 8-o'rin, kredit olish imkoniyatlari bo'yicha esa 22-o'rinni band qildi.

Bular, albatta, o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Yutuqlar o'tgan yilning davomida amalga oshirilgan mashaaqqatli mehnat, qat'iy harakatning natijasi bo'ldi. Xalqni roziligiga erishishni o'zining asosiy maqsadiga, el-yurtga siddiqdildan xizmat qilishni eng muhim vazifasiga aylantirgan davlatimiz siyosatini quvvodoshlarimiz ham har tomonlama qo'llab-quvvatlamoqda. Xalqimizga xos bo'lgan mana shu yakdillik, bag'rikenglik yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlarning yuqori sur'atlarda ilgilarib borishiga turtki berayotgan qudratli kuchdir.

Ochiq muloqotda juda ko'plab tashabbuslar, imtiyozlar, yengilliklar, yangi sharoit-imkoniyatlar tilga olindi. O'z navbatida, ko'tarilgan dolzarb masalalar, bildirilgan tashabbuslar biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada biz qonun ijodkorligi jarayoniga yanada jiddiy yondashib, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish, ularni qiyinayotgan masalalar yechimini qonunlarda aks ettirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari.



TARIXIY VA ZAMONAVIY ALOQALAR CHORRAHASI

18 – 20-avgust kunlari Toshkentda “Oʻzbekiston, Ozarbayjon va Yevropa: umumiy taraqqiyot yoʻlida hamkorlik” mavzuida 33-yigʻilish boʻlib oʻtdi. Jahon siyosiy va iqtisodiy maydonida hamkorlikning ahamiyati tobora ortib borayotgan bir davrda Oʻzbekiston, Ozarbayjon va Yevropa oʻrtasidagi yuqori darajadagi uchrashuv alohida ahamiyatga ega.

Aks sado

Ushbu anjuman mintaqaviy va xalqaro miqyosda muhim strategik maqsadlarni koʻzlashi bilan ham gʻoyatda ahamiyatlidir. Bu Nizomiy Ganjaviy xalqaro markazining Markaziy Osiyodagi birinchi tashabbusi boʻlib, unda 20 dan ortiq mamlakatlarning sobiq davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli siyosiy va ishbiarmon doiralari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, shuningdek, Oʻzbekistonning yuqori martabali rasmiy shaxslari jamlandi. Global transformatsiyalar, jumladan, texnologik yutuqlar, iqlim muammolari va geosiyosiy iqtifoqlarning oʻzgarishi sharoitida muloqot, tajriba almashish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi xalqaro platformalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Yigʻilishda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi transport va savdo aloqalarini rivojlantirishda Oʻrta yoʻlakning roli, ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari, shuningdek, transmintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar batafsil muhokama qilindi. Sunʼiy intellektning mintaqaviy taraqqiyotning muhim vositasi sifatidagi roli, zamonaviy Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan yutuqlar va islohotlar, mamlakatni rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari va uning xalqaro maydondagi mavqeiini mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Umuman, yigʻilish zamonaviy global muammolar hamda imkoniyatlar fonida mintaqaa mamlakatlari va Yevropa oʻrtasida konstruktiv muloqot, yangi sheriklik aloqalarini oʻrnatish hamda hamkorlikni mustahkamlash uchun platforma yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbarining uchrashuv ishtirokchilariga yoʻllagan tabrigida qayd etilganidek, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik masalalari, ushbu ikki yirik mintaqaning Yevropa bilan hamkorlik istiqbollari anjumanning bosh mavzusi etib belgilangan gʻoyat muhim. Biz buni oʻzaro hamjihatlik va hamkorlik jarayonlari jadallashib borayotgan Markaziy Osiyoni jahonga yanada kengroq tanishtirish, mintaqalararo oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash, shuningdek, Oʻzbekiston va Ozarbayjonning salohiyati hamda imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish yuzasidan fikr almashish uchun noyob yondashuv deb baholaymiz.



Oʻzaro ishonch va bir-birini qoʻllab-quvvatlash ruhida

Soʻnggi yillarda Ozarbayjon bilan oʻzaro ishonch va bir-birini qoʻllab-quvvatlash ruhidagi munosabatlarimiz faol rivojlanmoqda, ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisidagi shartnoma imzolandi, Davlatlararo oliy kengash faoliyat koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, Ozarbayjon Markaziy Osiyo va Yevropani bogʻlashda strategik koʻpriq vazifasini bajarib kelayotganini ham alohida qayd etish lozim.

Ayni paytda Yevropa bilan munosabatlarimiz oʻzining mutlaqo yangi rivojlanish davrini boshidan kechirayotir. Xususan, 2025-yilning aprelida yurtimizda ilk bor “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti oʻtkazildi. Unda mintaqamiz va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oʻrtasida strategik sheriklik oʻrnatish toʻgʻrisida tarixiy qaror qabul qilindi. Yaqin oylarda Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisida bitim imzolinishi koʻzda tutilgan.

Oʻzbekiston YEI va boshqa sheriklari bilan birgalikda samarali transport-logistika va energetika yoʻllarini rivojlantirish boʻyicha aniq maqsadga yoʻnaltirilgan ishlarni davom ettiryapti. Ushbu chora-tadbirlar mintaqamizning Gʻarb va Sharq oʻrtasidagi xab sifatidagi rolini qayta tiklash imkonini beradi. Oʻzbekistonning, xususan, Markaziy Osiyoning YEI bilan munosabatlarida “yashil” energetika va ekologik barqarorlikka yoʻnaltirilgan investitsiyalar strategik ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Oʻzbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidan Yevropaga elektr energiyasini yetkazib berish boʻyicha xalqaro loyihani toʻliq qoʻllab-quvvatlaydi. Bunda Ozarbayjonning tranzit va bogʻliqlikni taʼminlash borasidagi oʻrni muhim.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo

mamlakatlari ishtirokida amalga oshirilayotgan Kaspiy va Qora dengizlari orqali Yevropaga “yashil strategik yoʻlak” barpo etish loyihasi hamkorlik uchun ulkan salohiyat mavjud. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi oʻzaro manfaatli energetik bogʻliqlikning mustahkam asosini yaratadi. Ayni paytda Oʻzbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlar qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini faol kengaytirmoqda.

Masalan, faoliyat yuritayotgan 14 ta yangi quyosh va shamol elektr stansiyalariga qoʻshimcha ravishda Oʻzbekiston umumiy quvvati 24 ming megavatt boʻlgan 50 dan ortiq shunday loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Yaqin besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bunda YEI investitsiyalari va texnologiyalarining oʻrni katta. Mazkur maqsadlarga erishilsa, “issiqxona gazlari” chiqishi qariyb 16 mln. tonnaga qisqaradi. Bu Oʻzbekiston Parij kelishuvi doirasida “issiqxona gazlari” chiqindisini 35 foizga kamaytirish boʻyicha oʻz zimmasiga olgan majburiyatning muddatidan oldin bajarilishiga imkon beradi.

Yangi investitsiyalar “paketi”

Yana bir muhim yoʻnalish – energetika tizimlari modernizatsiyasida YEI ishtirokining kengayishi ularning samaradorligini oshiradi va anʼanaviy uglerod chiqindilari koʻrsatkichini kamaytirishga xizmat qiladi. YEI ayni jarayonni “Global Gateway” investitsiya strategiyasi orqali qoʻllab-quvvatlaydi.

Yangi investitsiya paketi doirasida “Team Europe” tashabbusi boʻyicha suv, energiya va iqlim oʻzgarishiga oid yirik qoʻshimcha mablagʻlar ajratilishi hamda “yashil” loyihalarga yanada koʻproq sarmoya yoʻnaltirilishi eʼlon qilingani tufayli Markaziy Osiyo toza energiya markaziga aylanishi mumkin. Bu nafaqat importga bogʻliqlikni kamaytiradi, balki ulkan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish imkonini ham beradi.

Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalari geografik joylashuvi, tarixiy rivojlanishi va iqtisodiy salohiyati bilan oʻziga xos ahamiyatga ega. Ikkala mintaqaa ham Yevropa bilan qadimdan aloqada boʻlib, bugungi kunda hamkorlikning yangi imkoniyatlarini izlamogda.

Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalarining oʻzaro bogʻliqligi bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchisi – geografik joylashuv. Ikkala mintaqaa ham Yevropa va Osiyoning tutashgan hududida joylashgan boʻlib, tarixan muhim savdo yoʻllarining chorrahasi boʻlgan. Buyuk Ipak yoʻlining bir qismi aynan shu hududlardan oʻtgan.

Ikkinchisi – tarixiy aloqalar. Ikkala mintaqaa ham turli davrlarda yagona imperiyalar tarkibida boʻlgan (masalan, Chor Rossiyasi, sovetlar ittifoqi). Bu esa iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Uchinchisi – ikkala mintaqaa xalqlarining tili, urf-odatlari va anʼanalarida oʻxshash jihatlari mavjud. Bu esa oʻzaro tushunish va hamkorlikni osonlashtiradi.

Toʻrtinchisi – ikkala mintaqaa ham energetika resurslariga boy. Ularning tranzit salohiyati Yevropa uchun muhim ahamiyatga ega. Quvonarlisi, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazning Yevropa bilan

“Oʻzbekiston YEI va boshqa sheriklari bilan birgalikda samarali transport-logistika va energetika yoʻllarini rivojlantirish boʻyicha aniq maqsadga yoʻnaltirilgan ishlarni davom ettiryapti. Ushbu chora-tadbirlar mintaqamizning Gʻarb va Sharq oʻrtasidagi xab sifatidagi rolini qayta tiklash imkonini beradi.”

hamkorligi koʻplab sohalarni qamrab oladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo va Kavkaz energetika resurslarini diversifikatsiya qilishga qiziqish bildirmoqda. Bu borada “Janubiy gaz yoʻlagi” loyihasi muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz Yevropa hamda Osiyo oʻrtasidagi transport yoʻllarini rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi.

“TRASEKA” loyihasi bu yoʻnalishdagi hamkorlikning muhim misolidir. Qolaversa, YEI Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga intilmogda. Bu borada investitsiyalarni jalb qilish, biznes muhitini yaxshilash va savdo toʻsiqlarini olib tashlash muhim ahamiyatga ega.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarida

Nizomiy Ganjaviy nomidagi xalqaro markaz tashkil etgan forum energetika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, yangi loyihalar muhokamasi va investitsiyalarni jalb qilish uchun maydon yaratdi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston, Ozarbayjon va Yevropa oʻrtasidagi siyosiy muloqotni kuchaytirish, mintaqaviy hamda xalqaro muammolarni muhokama etish va umumiy yechimlarni topish, turli sohalarda hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim platforma vazifasini oʻtadi. Ishonamizki, ushbu anjuman mintaqaa mamlakatlari taraqqiyoti hamda xalqlarimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Bahodir XOLIQOV,

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, professor.

demokratik islohotlarni qoʻllab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini taʼminlashga koʻmaklashadi. YEI mintaqalar mamlakatlari bilan terrorizm, narkotrafik va boshqa transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda hamkorlik qilyapti. YEI Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarida taʼlim sohasini rivojlantirish, talabalar va oʻqituvchilar almashinuvini qoʻllab-quvvatlash, madaniy merosni saqlashga koʻmaklashadi.

Tizimli hamkorlik, ulkan salohiyat

Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalari Yevropa bilan hamkorlik uchun katta salohiyatga ega. Energetika, transport, savdo, siyosat, xavfsizlik, taʼlim va madaniyat sohalarida sheriklikni rivojlantirish ikkala tomon uchun ham manfaatli boʻlishi mumkin.

Biroq hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish, siyosiy barqarorlikni taʼminlash, korrusiyaga qarshi kurashish, inson huquqlarini hurmat qilish va geosiyosiy raqobatni hisobga olish zarur. Faqat shundagina Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz Yevropa bilan uzoq muddatli va oʻzaro manfaatli sheriklikni yoʻlga qoʻyishi mumkin.

Eʼtiborlisi, Oʻzbekiston va Ozarbayjon Markaziy Osiyo hamda Kavkaz mintaqalarida muhim iqtisodiy oʻyinchi sifatida hisoblanadi. Yevropa bilan hamkorlik ushbu mamlakatlarga yangi bozorlarga chiqish, investitsiyalarni jalb etish va savdo aylanmasini oshirish imkonini beradi. Xususan, transport va logistika sohasidagi loyihalar (masalan, Transkaspiy xalqaro transport yoʻlagi) mintaqaning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Yevropaning energetika resurslariga boʻlgan ehtiyoji ortib borayotgan bir paytda Ozarbayjon gaz taʼminotida muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekiston ham energetika sohasini rivojlantirish va diversifikatsiyalash orqali Yevropaga energiya eksport qilish imkoniyatlarini koʻrib chiqmogda.

STRATEGIK HAMKORLIKNING YORQIN IFODASI

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) Davlat rahbarlari kengashining joriy yil 31-avgust – 1-sentyabr kunlari Tyanszin shahrida (Xitoy) boʻlib oʻtadigan 25-yigʻilishi

oldidan poytaxtimizda Oʻzbekiston – Xitoy strategik hamkorligiga bagʻishlangan davra suhbatida hamda “Oʻzbekiston strategiyasi” jurnalining maxsus soni taqdimoti boʻlib oʻtdi.

Taqdimot



U “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan Xitoyning Oʻzbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Tadbirda Xitoy Xalq Respublikasining Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun, mamlakatimiz vazirlik va idoralari vakillari, tahlil markazlari ekspertlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Anjumanda aytilganidek, Xitoy Oʻzbekistonning eng yirik savdo-sarmoyaviy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Oʻtgan yili ikki mamlakat oʻrtasidagi savdo hajmi 12,4 mlrd. dollardan oshgani, jalb qilingan toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar 10 mlrd. dollarni tashkil etgani, iqtisodiyotimizning energetika, telekommunikatsiya, transport, kon-metallurgiya, toʻqimachilik va raqamli infratuzilima kabi muhim tarmoqlarida Xitoy kapitali ishtirokida ochilgan 3 300 dan ziyod qoʻshma korxonalar samarali faoliyat yuritayotgani buning yaqqol dalilidir.

Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi koʻp tomonlama hamkorlik turli xalqaro platformalar, jumladan, BMT, SHHT, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi doirasida tobora rivojlanib bormogda. Ayniqsa, ikki davlat SHHT hammuassislari va faol aʼzolari sifatida oʻzaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun aniq taklif hamda tashabbuslarni ilgari surib kelmogda.

Darhaqiqat, Oʻzbekiston tashkilotga raislik qiluvchi mamlakat sifatida SHHT Davlat rahbarlari kengashining majlislariga toʻrt marotaba mezbonlik qilgan boʻlsa, uning soʻnggisi 2022-yilda Samarqand shahrida boʻlib oʻtdi. Mazkur sammit yakunlari boʻyicha rekord darajada – jami 44 ta hujjat, jumladan, qator kelishuv va dasturlar imzolandi. Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan SHHTga aʼzo mamlakatlar oʻrtasidagi mintaqaviy hamkorlik

samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash boʻyicha umumiy tamoyil va yondashuvlarni ishlab chiqish, maxsus iqtisodiy zonalar alyansini tashkil etish, SHHT davlatlari savdo yarmarkasini oʻtkazish kabi yoʻnalishlarda oʻzaro muloqot, tushunish va hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim takliflar ilgari surildi.

Elchi janoblari taʼkidlaganidek, Oʻzbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi oʻrtasida oʻzaro manfaatli strategik sheriklikning bundan keyin ham izchil rivojlanib borishi, xususan, SHHT doirasidagi siyosiy-diplomatik muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy almashinuvlar va mintaqaviy hamda global xavfsizlikni taʼminlash sohalaridagi faoliyat yanada mustahkamlanishi, shubhasiz.

“Oʻzbekiston strategiyasi” jurnalining maxsus soni Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi har tomonlama strategik sheriklik, shuningdek, SHHT doirasidagi koʻp qirrali aloqalarning muhim yoʻnalishlariga bagʻishlangan boʻlib, unda mintaqaviy hamkorlikka oid turkum materiallar, ekspertlar tahlillari va amaliy tajribalar qamrab olingan. Shuningdek, ikki mamlakatning tegishli vazirliklari rahbariyati va tadqiqot muassasalari ekspertlari tomonidan tayyorlangan tahliliy sharhlarga ham keng oʻrin berilgan. Shu maʼnoda, mazkur nashr Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi strategik sheriklik, SHHT doirasida rivojlanib borayotgan aloqalar mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq tushinishga xizmat qiladi.

Tadbirda soʻzga chiqqan ekspertlar SHHTning muhim tadbiri arafasida “Oʻzbekiston strategiyasi” jurnalining maxsus soni chop etilishi mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga jiddiy eʼtibor qaratilayotganidan dalolat ekanini alohida taʼkidlashdi.

Abdunabi ALIQULOV (“Xalq soʻzi”).

REKLAMA

QIZIQISH BILDIRISHGA SOʻROV

“OʻZBEKISTONDA RAQAMLI INKLYUZIVLIK” LOYIHASI

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MCHJ “Oʻzbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi doirasida “UZ-DIP-505600-CS-CQS – Harakatlanish imkoniyati cheklanganlar uchun ishga tayyorgarlik boʻyicha koʻnikmalarni rivojlantirish trening dasturlari” konsalting xizmatlari uchun konsalting tashkilotlarini qiziqish bildirishga taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2025-yil 3-sentyabr soat 18:00.

Batafsil maʼlumot uchun: udip@it-park.uz, (99871) 209 11 99, +99890 929 60 49.

QIZIQISH BILDIRGAN TASHKILOTLAR UCHUN SOʻROV

(MASLAHAT XIZMATLARI — FIRMALARNI TANLASH)

Mamlakat: Oʻzbekiston Respublikasi
Loyiha nomi: “A373” yoʻlining 0 – 37 km qismini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish
Soha nomi: transport
Maslahat xizmatlari: moliyaviy audit xizmatlari
Moliyalashtirish usuli: boʻlib-boʻlib sotish
Moliyalashtirish raqami: UZB-1042

Oʻzbekiston Respublikasi Islom taraqqiyot banki (ITB) mablagʻlari hisobiga yuqorida koʻrsatilgan loyihani moliyalashtirmogda va mablagʻlarning bir qismini moliyaviy audit xizmatlariga yoʻnaltirish rejalashtirilgan. Topshiriqning maqsadi auditorga Loyihaning moliyaviy hisobotlari (PFS) har bir moliyaviy yil yakuni boʻyicha loyihaning moliyaviy ahvoli toʻgʻri va haqqoniyaks etirilishi hamda ITBdan olingan mablagʻlar hamda sarflangan xarajatlari bank tomonidan belgilangan moliyalashtirish talablariga mos kelishi va PFSda toʻgʻri aks etirilishi hamda professional nuqtai nazarni bildirishdan iboratdir.

Islom taraqqiyot banking 2025-yil 23-yanvardagi veb-saytida eʼlon qilingan ushbu loyiha Umumiy xaridlar toʻgʻrisidagi bildirishnomalarga (GPN) muvofiq amalga oshiriladi.

Topshiriq boʻyicha batafsil maʼlumotlar

Texnik topshiriq shartlariga muvofiq (TOR) ushbu eʼlongailovaqilingan.

Audit davri: 2025 — 2030-moliyaviy yillar (31/12/2025, 31/12/2026, 31/12/2027, 31/12/2028, 31/12/2029 va 31/12/2030).

Topshiriq Islom taraqqiyot banki va Oʻzbekiston hukumati tomonidan taqdim etilgan barcha loyiha resurslarining auditini oʻz ichiga oladi.

Qoʻllanilish doirasi haqida qisqacha maʼlumot: PFS auditiga qoʻshimcha ravishda, xizmatlar ITB qoidalar va protseduralariga muvofiqligini tekshirishni (shu jumladan, xarajatlarning muvofiqligini) va TORga muvofiq loyihaning asosiy vositalarini tekshirishni oʻz ichiga oladi.

Qiziqish bildirgan talabgorlar xizmatlarni bajarish uchun malakali ekanliklarini tasdiqlovchi maʼlumotlarni taqdim etishlari shart. EOI quyidagilarni oʻz ichiga olishi kerak: (i) kompaniya profili; (ii) roʻyxatga olish akkreditatsiya guvohnomasi va amaldagi audit litsenziyasi; (iii) oxirgi besh (5) yil (2020 — 2025) davomida bajarilgan kamida ikkita (2) oʻxshash moliyaviy audit topshirigʻi toʻgʻrisidagi dalillar; (iv) xalqaro taraqqiyot banklari (masalan, ITB, Jahon banki, OTB, YeTTB) tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarning kamida ikki (2) auditidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi dalillar; (v) kamida ikkita (2) maʼlumotnoma (aloqa maʼlumotlari bilan). Transport/infratuzilma

sektori loyihalarini tekshirish tajribasiga ega boʻlishi afzalroqdir.

Asosiy ekspertlar saralash bosqichida baholalanmaydi.

Qiziqqan talabgorlar eʼtiborini ISDB loyihasini moliyalashtirish boʻyicha maslahat xizmatlarini xarid qilish yuzasidan yoʻriqnomaning 2019-yil aprel (2023-yil fevral oyida qayta koʻrib chiqilgan) Xaridlar siyosatining 1.12.1 va 1.12.2 paragraflariga qaratiladi (01-qism, 01-bob).

Maslahatchilar qoʻshma korxona (QK) va/yoki subkonsultatsiya shaklida oʻz malakalarini oshirish uchun boshqa tashkilotlar bilan birlashishi mumkin. QK uchun tashkilotlar EOI bilan oʻzaro anglashuv memorandumini (memorandum) yoki QK bitimi loyihasini taqdim etishlari kerak; barchaQK sheriklari butun shartnoma boʻyicha birgalikda va alohida javobgar boʻladilar. Ixtisoslashgan vazifalarni bajarish uchun subkonsultatsiyaga ruxsat beriladi; batafsil kelishuvlar RFP bosqichida tasdiqlanadi.

Auditorlik firmasi 2019-yil aprel (2023-yil fevral, qayta koʻrib chiqilgan) ITB loyihasini moliyalashtirish boʻyicha maslahat xizmatlarini xarid qilish yuzasidan yoʻriqnomada belgilanganidek, har yili topshiriqni bajarish uchun mahalliy firmalar roʻyxatidan eng kam xarajatli tanlash (LCS) usuliga muvofiq tanlanadi.

Litsenziyalash/munosiblik: qisqa roʻyxatga

olish uchun qatnashchi Oʻzbekiston Respublikasi vakolatli organi tomonidan berilgan amaldagi audit litsenziyasiga ega boʻlishi kerak; xalqaro qatnashchilar faqat litsenziyaga ega boʻlgan mahalliy firma bilan hamkorlikda qatnashishi mumkin, bunda ISDB muvofiqlik talablarigamuvofiq.

Til: EOI ingliz tilida topshiriladi. Auditor hisobotlari va PFS ingliz tilida tayyorlanadi; agar birlamchi moliyaviy hisobotlar oʻzbek yoki rus tillarida boʻlsa, qatnashuvchi tegishli boʻlimlarning ingliz tiliga tarjima qilinishini taʼminlaydi.

Manfaatdor auditorlik tashkilotlari qoʻshimcha maʼlumotlarni quyidagi manzil boʻyicha ish vaqti davomida, mahalliy vaqt bilan soat 09:00 dan 18:00 gacha olishlari mumkin.

Qiziqish bildirishnomalari faqat elektron pochta orqali yuboriladi (bitta imzolangan PDF fayl; qogʻoz nusxalari shart emas). EOI quyidagi elektron pochta manziliga 2025-yil 22-sentyabr (mahalliy vaqt bilan 11:00)gacha qabul qilinishi kerak.

“Avtoyoʻlinvest” agentligi.

Asliddin Isayevga, “Avtoyoʻlinvest” agentligi direktori.

Manzil: Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent 100000, Mustaqillik shohkoʻchasi, 68-uy, Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi.

Tel: (+99871) 207-67-68.
Elektron pochta: piuisdb37km@gmail.com

Faxr

SEN KO‘NGLIM
KO‘ZIDA
GAVHARSAN, VATAN

*Tog‘laring yellarin ohuga yo‘ydim,
Tonglaring nurida tuyg‘ular tuydim,
Men seni ilohiy gulro‘day suydim,
Sen ko‘nglim ko‘zida gavharsan, Vatan.*

*To‘zonlar to‘zg‘idi qayg‘uday bo‘zlab,
Xazonlar izg‘idi mezonday so‘zlab,
Tog‘day kelaverding quyoshni ko‘zlab,
Sen ko‘nglim ko‘zida gavharsan, Vatan.*

*Chaqmoq chaqinlarda yorqinlanding sen,
Temur tug‘larida yolqinlanding sen,
Jayxun suvlarida to‘lqinlanding sen,
Sen ko‘nglim ko‘zida gavharsan, Vatan.*

*Muzliklar muzlari eridi-sindi,
Har giyoh, har daraxt nur kabi undi,
Huvaydo-huvaydo quyoshlar yondi,
Sen ko‘nglim ko‘zida gavharsan, Vatan.*

*Yuz bosdim yurakday yaproqlaringga,
Ko‘z bosdim ko‘ksingning so‘troqlariga,
Qo‘shilib yongayman titroqlaringga,
Sen ko‘nglim ko‘zida gavharsan, Vatan.*

Mengnor OLLOMUROD,
shoir.

JONDORDA GASTRONOMIK KO‘CHA

Har qanday kishi chet el sayohatiga yo‘l olishdan avval o‘sha mamlakatning milliy taomlari, pazandachiligi bilan qiziqishi tayin. Va bu tabiiy hol. Shu inobatga olingan holda Jondor tumani markazidagi Mahmud Torobiy ko‘chasi gastronomik go‘shaga aylantirilayotir.

Turizm

– Yurtimiz milliy taomlari bilan ham nom qozongan, – deydi jondorlik hamkasbimiz I. Haydarov. – Qo‘li shirin oshpazlarimiz tomonidan tayyorlanayotgan sofi osh, kabob, balig‘u somsalar chet ellik mehmonlarning olqishiga sazovor

bo‘lyapti. Bundan tashqari, tumanimizda olis o‘tmishdan hikoya qiluvchi ko‘hna manzillar ko‘p. Shu bois qadimiy Varaxsha shahri xarobalari, Qizbibi qadamjosi, Mahmud Torobiy bilan bog‘liq maskanlarni

tomosha qilgani sayyohlar tez-tez kelishadi. Bunda ularga bo‘lg‘usi gastronomik ko‘cha manzur bo‘lishi tayin.

Ahamiyatlisi, gastronomik ko‘cha mahalliy byudjet uchun ham go‘shimcha daromad manbai vazifasini o‘taydi. Gap shundaki, sayyohlar o‘z xarajatlarning taxminan 30 foizini ovqatlanishga sarflashadi. Qolaversa, mazali taomlar ularning tashrif kunlarini uzaytirishi ham mumkin.

Barpo etilayotgan ko‘ngilochar maskan

tunu kun faoliyat ko‘rsatadi. Quyosh panelli yoritqichlar, shinamgina piyodalar yo‘lagi, soyabonlar, o‘rindiqlar, shinam oshxonalar – bularning barchasi mehmonlarning milliy taomlardan tanovul qilib, ko‘ngilli hordiq chiqarishiga imkon beradi.

Gastronomik ko‘cha sharofati bilan xizmat ko‘rsatish sohasida yuzdan ziyod tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlaydi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so‘zi").

YILIGA UCH MARTA HOSIL

Farg‘ona tumanidagi 7 mingga yaqin aholi xonadonining 654 gektar tomorqasida "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida malina yetishtirilmoqda. Bu soha rivojiga qaratilgan e‘tibor va rag‘bat tufayli tumanda keyingi yillarda mahalliy navlar bilan birga Italiya, Turkiya kabi davlatlardan keltirilgan eksportbop yangi navlarni mahalliyashtirish hamda undan yuqori hosil olishga erishilyapti.

Omilkorlik

Masalan, bugungi kunda "Alpomish Xosiyatxon" bog‘dorchilik fermer xo‘jaligining 14 gektar yerida Italiyaning 12 xil malina ko‘chatlari parvarishlanmoqda. O‘z navbatida, zamonaviy yondashuvlar asosida serhosil va eksportbop navlarni ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yo‘lga qo‘yilgan.



– Birgina o‘tgan yilning o‘zida Italiyadan 2 ming dona yangi nav ko‘chatlar olib kelindi, – deydi xo‘jalik rahbari Elyorbek Nishonov. – Shu tariqa ochiq maydonlarga ekilgan bu navlar mahalliy iqlim sharoitiga tez moslashdi. Ular issiqxonada ham sinovdan o‘tkazildi. Natijada issiqxona sharoitida parvarish qilingan malina ko‘chatlaridan

yiliga uch marta hosil olishga erishildi. Shu bilan birga, har gektar yerdan olinadigan hosil salmog‘i oshdi va sifati yaxshilandi. Bu esa malina mevasini uzoq vaqt sifatli saqlash hamda eksportga yo‘naltirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Botir MADIYOROV
("Xalq so‘zi").

Xorijiy tillarni o‘rgatuvchi
eng yaxshi maktab

Yangiqo‘rg‘on tumanining Yuksalish mahallasida joylashgan 10-umumta‘lim maktabida uch mingga yaqin o‘quvchilar tahsil oladi. Bu maktabda asosiy fanlar qatori ingliz va nemis tillarini o‘qitishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Ofarin!

Ayni maqsadda til o‘rgatishning zamonaviy vositalari – kompyuter, ovoz kuchaytirgich, interfaol doska va boshqa elektron jihozlar jamlangan maxsus sinfxona imkoniyatlaridan keng foydalanilayotir. Tugallangan o‘quv yili yakunlari bilan ta‘lim dargohining 50 nafar o‘quvchisi "IELTS" sertifikatini qo‘lga kiritib, oliy o‘quv yurtiga kirish imtiyozlariga ega bo‘ldi.

– Prezident sovrini uchun o‘tkazilgan "Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab" respublika tanlovida birinchi o‘rinni egallaganimiz ayni yo‘nalishdagi katta yutug‘imiz bo‘ldi, – deydi 10-umumta‘lim maktabi direktori Aziza Asqarova. – O‘quvchilarimiz tanlovdagi muvaffaqiyatli ishtiroki uchun 500 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi. Bunga qo‘shimcha ravishda ularga Buyuk Britaniyaga ta‘lim sayohati yo‘llanmasi ham taqdim etildi.

Aytish joizki, qishloq maktabidagi namunali tahsil natijasi bitiruvchilar katta qismining oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinishida ham yaqqol ko‘rinadi. Birgina joriy yilning o‘zida ushbu maktabning 90 nafar o‘quvchisi talabalik baxtiga erishgani buning tasdiq‘idir.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so‘zi').

OLIV TA‘LIM VA TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI –
INNOVATSION RIVOJLANISH SARI QAT‘IY QADAM

Har qanday davlatning intellektual salohiyati va barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda oliy ta‘lim tizimi hal qiluvchi omildir. Zamonaviy dunyoda ta‘lim faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmasdan, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Ilm va ta‘lim bir-biriga chambarchas bog‘liq jarayonlar sifatida qaraladi. Bu esa o‘quv jarayonining faqat ma‘lumot berish emas, balki yangilik yaratish jarayoniga aylanganini anglatadi.

Nuqtai nazar



Massachusetts texnologiya instituti, Oksford, Kembrij, Tokio universitetlari va dunyodagi boshqa ko‘plab yetakchi oliygo‘hlar aynan "tadqiqot universiteti" modelida faoliyat yuritib, milliy va jahon iqtisodiyotining ilmiy-amaliy rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Bunday yondashuv O‘zbekiston uchun ham juda muhim. Chunki tadqiqotga asoslangan ta‘lim modeli mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion rivojlanishni ta‘minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar faoliyatini ta‘lim jarayoni bilan uyg‘un holda tashkil etish ayni vaqtda muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Ilm, ayniqsa, texnologiya va iqtisodiyot sohalarida yuksalishning harakatlaniruvchi kuchidir. Ushbu jarayon faqat laboratoriyalar va ilmiy maqolalar bilan cheklanib qolmasligi, balki amaliyotga yo‘naltirilgan holda jamiyat hayotida o‘z aksini topishi zarur.

Kelajakni yaratish vositasi

Ilm – o‘tmishni anglash, bugunni baholash va kelajakni yaratish vositasidir. U orqali o‘z tariximizni chuqurroq bilib olamiz, kelajakni teranroq bashorat qilish imkoniga ega bo‘lamiz. Yangi davrda texnologik mustaqillikka erishishning yagona yo‘li ham ilm va innovatsiyadan o‘tadi. Shu bois mamlakatimizda fundamental va amaliy fanlarni rivojlantirish, ilmiy muassasalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yosh tadqiqotchilarni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda ilmiy izlanishlar uchun zarur infratuzilmalar yaratilmoqda, grantlar, innovatsion loyihalarga moliyaviy ko‘maklar ajratilayotir. Bu esa oliy ta‘lim tizimini faqat bilim berish markaziga emas, balki milliy innovatsiya muhitiga aylantirish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar oliy ta‘lim tizimining ajralmas komponenti hisoblanadi. Ular ta‘lim sifatini oshirish, yangi pedagogik va amaliy usullarni joriy etish hamda muammolarni ilmiy asosda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda ilmiy izlanishlar faqat professor-o‘qituvchilar emas, balki bakalavr va magistrant talabalar uchun ham ta‘lim jarayonining uzviy qismiga aylanmogi zarur.

Bir tomondan, fan va tadqiqotlar natijalari ta‘lim mazmunini boyitisa, ikkinchi tomondan, ta‘limning o‘zi fan uchun yangi salohiyat, iqtidorlar va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan g‘oyalarni manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida ta‘limda sun‘iy intellekt, onlayn ta‘lim platformalari, simulyatsion texnologiyalar kabi innovatsiyalar joriy etilmoqda. Shu orqali talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, jamiyat hamda iqtisodiyot ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqiladi.

Ayni paytda ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida talabalar uchun ilmiy-amaliy laboratoriyalar va tadqiqot markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ular "bilimlarni amaliyotda qo‘llab ko‘rish" tamoyilini hayotga tatbiq qilishda muhim o‘rin tutaypti. Shu bilan birga, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan amalga oshirilayotgan go‘shma dastur va loyihalar ilmiy tadqiqotlarning xalqaro maydonga chiqishiga zamin yaratmoqda.

Bu borada Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti texnik yo‘nalishdagi ilg‘or hamda tarixiy ilmiy markaz sifatida ta‘lim va fan uyg‘unligining amaliy namunasini namoyon etmoqda. Universitet ta‘lim, tadqiqot va innovatsiyalarni yagona platformada uyg‘unlashtirishga qaratilgan islohotlarni izchil amalga oshirmoqda. Xususan, xorijiy universitetlar bilan qo‘shma loyihalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot guruhlarini shakllantirish va global ilmiy jamoaga

integratsiyalashuv orqali universitet milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy markazga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda universitetda ilmiy tadqiqotlar uchun zamonaviy infratuzilmalar – yuqori texnologiyali laboratoriyalar, markazlar tashkil etildi. Jumladan, "Micromine" geotexnologik laboratoriyasi Avstraliyaning "Micromine" kompaniyasi bilan hamkorlikda ochildi. Ushbu laboratoriyada 1 mln. dollarlik litsenzion dasturlar ("Micromine Origin & Beyond", "Geobank", "Pitram") orqali geologik ma‘lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Mehnatga xavfsiz yondashuv markazida esa texnik xavfsizlik, sanoat himoyasi, ekologik muhandislik sohalarida amaliy tadqiqotlar o‘tkaziladi. Sanoat robototexnika laboratoriyasida talabalar sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan robototexnik tizimlarni loyihalash va yaratish bilan shug‘ullanishmoqda.

Mazkur laboratoriyalarda nafaqat professor-o‘qituvchilar, balki talabalar ham mustaqil ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Talabalar ilmiy guruhlariga jalb etiladi, ilmiy rahbarlar esa tadqiqot natijalarini o‘quv jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Fan va amaliyot uyg‘unligi

Oliygo‘hda ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar integratsiyasiga qaratilgan qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuv ta‘lim sifatini yaxshilash, fan va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash, talabalarning ilmiy faolligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy fan va texnologiyalar asosida qayta ishlangan o‘quv dasturlari talabalarga nazariy bilim bilan birga, ularda hayotiy va so‘haviy muammolarni hal etish ko‘nikmasini ham shakllantirmoqda. Xususan, geologiya-qidiruv, konchilik ishi,

metallurgiya kabi fanlarda o‘quv materiallari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘langan. Bu esa talabalarning ta‘lim olish jarayonida ilmiy tahlil va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Universitetda professor-o‘qituvchilar nafaqat dars beruvchi mutaxassis, balki tadqiqot rahbari sifatida ham faoliyat olib boradi. Talabalar bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar, loyihalar va patentlar ustida ishlash ta‘lim va fan uyg‘unligining samarali shakli sifatida amaliyotda qo‘llanilmoqda. Bakalavr va magistrlar o‘z bitiruv ishlarini ilmiy loyihalarga suyangan holda tayyorlab, amaliy tadqiqotlar asosida himoya qilmoqda.

Bu yerda "Yosh olimlar klubi" va "Innovatsion g‘oyalarni startap akademiyasi" faoliyat yuritaypti. Ushbu tuzilmalar orqali talabalar o‘z tadqiqot va biznes g‘oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ta‘lim jarayonida talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish orqali ularni mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechim topish ko‘nikmalari rivojlantirilmoqda. Ilmiy konferensiyalar, startap tanlovlari va grant loyihalaridagi ishtiroki orqali yoshlar ilmiy muhitga chuqur kirib bormoqda.

Universitet fan va ta‘limni sanoat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga faol hissa qo‘shmoqda. Bu ishlar nafaqat ilmiy salohiyatni oshirish, balki mamlakatimiz sanoatini innovatsion asosda taraqqiy ettirishga ham xizmat qilmoqda.

Xususan, universitet "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ, "O‘zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ, "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" AJ kabi yirik sanoat korxonalari bilan hamkorlikda qator muhim ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu loyihalar mineral resurslarni qayta ishlash, texnologik yechimlar yaratish, energiya samaradorligini oshirish kabi dolzarb sohalarni qamrab olgan.

Ilmiy izlanishlarni
moliyalashtirishning o‘ziga xos
mexanizmi

Ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan ishlanmalar asosida bir qator patentlar olinmoqda va ular amaliyotga joriy etilayotir. Bu esa fanning amaliy

qiymatini oshirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va ularni iqtisodiyotda keng qo‘llash imkonini bermoqda.

Universitet huzuridagi Texnologik startap markazi, Innovatsiya va transfer ofisi hamda Patent-ekspertiza bo‘limi orqali aniq ilmiy-amaliy mexanizm samarali yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, "Ilmiy g‘oya – Ilmiy ishlanma – Patent – Amaliyotga joriy etish" zanjiri asosida tadqiqot natijalari real iqtisodiy salohiyatga ega mahsulotlarga aylantirilmoqda.

Bundan tashqari, oliygo‘h yirik korxonalar bilan hamkorlik memorandumlari asosida uzluksiz tadqiqot va innovatsiya aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Ilmiy izlanishlar "sanoatda aniq natija berish" tamoyili asosida amalga oshirilayotgani ularning moliyalashtirilishida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Universitet xalqaro oliy ta‘lim maydonida ilmiy salohiyatini mustahkamlash, ta‘lim sifati va tadqiqot faoliyatini yuksaltirish orqali nufuzli reytinglarda o‘z o‘rnini topmoqda. Bugungi kunda universitet QS ("Quacquarelli Symonds") va THE ("Times Higher Education") kabi dunyodagi eng nufuzli xalqaro reyting tizimlarida ishtirok etib, o‘zining ta‘lim sifati, ilmiy tadqiqot faoliyati va xalqaro hamkorlikdagi yutuqlarini global darajada namoyon qilmoqda.

Ayniqsa, universitetning "QS World University Rankings" ro‘yxatida ilk bor 901 – 950 pog‘onalar oralig‘idan joy olgani uning xalqaro miqyosdagi ilmiy va akademik salohiyati tan olinayotganini ko‘rsatadi. Bu natija so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning yuqori faolligi hamda xalqaro akademik hamkorliklarning samarasi hisoblanadi.

Universitetning xalqaro reytinglardagi muvaffaqiyatli ishtiroki ilmiy izlanishlarning sifatini oshirish, xalqaro akademik mobillik imkoniyatlarini kengaytirish, talabalar va yosh olimlar uchun xalqaro stipendiyalar, grantlar va hamkorlik dasturlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishda muhim mexanizm vazifasini o‘tamoqda.

Yangi O‘zbekiston kelajagi, avvalo, intellektual salohiyatga, ya‘ni ilm va ta‘limning barqaror rivojiga tayanadi. Ilm-fan va ta‘limning uyg‘unligi nafaqat fanning yuqori bosqichiga ko‘tarilishi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Toshkent davlat texnika universiteti ta‘lim va fan uyg‘unligi, sanoat bilan yaqin hamkorlik, xalqaro ilmiy hamijhatlik va akademik reytinglardagi faol ishtirok kabi ko‘plab ustuvor yo‘nalishlar asosida faoliyat yuritmoqda. Bu tajriba nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqadagi oliy ta‘lim muassasalari uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

Sunnatilla G‘OIBNAZAROV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti fakultet dekani,
texnika fanlari doktori.

Toshkentda "O‘zbekiston – Pokiston: mushtarak madaniy meros" fotoko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. O‘set usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va
mullifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator
M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-
matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.30

1 2 3 4 5 6